



XX asr jahon adabiyoti kontekstida ruhiyat tasviri

Nasirova Zuhra

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

katta o‘qituvchisi

Annotasiya: XX asr adabiyotida inson ruhiyatiga munosabat jahon adabiyoti taraqqiyotida muhim omillardan biri bo‘ldi. Jamiyat tanazzulga yuz tutgan holatlar, ijtimoiy inqiroz jarayonlari zamonaviylikni, aynan bugungi kunni to‘g‘ri idrok qilishni tushunish va anglashni shakllantirdi. Insoniy dunyoqarashlar va real hayat tasviriga yangicha munosabatlar yuzaga keldi.

Kalit so‘zlar: kontekst, ruhiyat, “yangi roman”, “ong oqimi”, “absurd”, “xaus”, “shizofreniya”, “ruh”

Аннотация: Отношение к психологизму человека в литературе XX века стало одним из важных факторов развития мировой литературы. Ситуации упадка общества, процессы социального кризиса сформировали понимание и осмысление современности, в частности восприятие сегодняшнего дня. Возникло новое отношение к человеческому мировоззрению и изображению реальной жизни.

Ключевые слова: контекст, психология, «новый роман», «поток сознания», «абсурд», «хаус», «шизофрения», «душа»

Abstract: The attitude to human psychologism in the literature of the twentieth century has become one of the important factors in the development of world literature. Situations of society decline, processes of social crisis have shaped the understanding and comprehension of modernity, in particular the perception of today. A new attitude to human outlook and depiction of real life has emerged.

Key words: context, psychology, “new novel”, “stream of consciousness”, “absurd”, “house”, “schizophrenia”, “soul”

XX asr jahon adabiyoti kontekstida ruhiyat tasvirining namoyon bo‘lishi, dunyoga yangicha qarash “ichki hissiyotning aqlidan ustunligi” mushohadaga aylandi. XX asr mashhur faylasuf psixolog Zigmund Freydning inson ruhiyati bilan bog‘liq asarlarida o‘z aksini topa boshladi. Ruxshunosning nazariy qarashlari so‘z san’atida psixologik tasvir imkoniyatlarini asoslashga xizmat qildi. Natijada yangicha adabiy oqimlar, mavzu va g‘oyalilar, yangicha



tafakkur va yondashuvlar qaror topa boshladi. Jahon adabiyotida “yangi roman”, “ong oqimi”, “absurd”, “xaus”, “shizofreniya”, “ruh” adabiy vosita sifatida xizmat qildi. O‘z navbatida adabiyotdagi nafosat, badiiylik, ruhiyat tamoyillari muhim omil sifatida qaraldi. Ayniqsa, XX asr adabiyotida inson ruhiyatiga munosabat jahon adabiyoti taraqqiyotida muhim omillardan biri bo‘ldi. Jamiyat tanazzulga yuz tutgan holatlar, ijtimoiy inqiroz jarayonlari zamonaviylikni, aynan bugungi kunni to‘g‘ri idrok qilishni tushunish va anglashni shakllantirdi. Insoniy dunyoqarashlar va real hayot tasviriga yangicha munosabatlar yuzaga keldi. Adabiiy jamoatchilik ruhiyatida keskin o‘zgarishlar ro‘y berdi. Yozuvchi va shoirlar o‘z asarlarida jamiyatdagi tushkunlik kayfiyati, tanazzul holatlarini badiiy ifodaladilar.

Yapon adabiyoti tarixi va taraqqiyoti xalq og‘zaki ijodi zamirida vujudga kelgan va rivoj topgan. XIX asr boshlariga kelib yapon nasri yuksaldi. Davrning o‘rtalarida yapon adabiyotida sentimental roman janri vujudga keldi, yevropalik mualliflarning asarlari tarjimalari sezilarli darajada o‘sdi. Shimey Ftabatey (1864—1909) „Suzuvchi bulutlar“ romani bilan yapon adabiyotida tanqidiy realizmga asos soldi. Roka Tokutomi, Soseki Natsume va boshqalarning asarlarida ham tanqidiy realizm g‘oyalari o‘z aksini topgan. XX asr boshlaridan yapon adabiyotida Yevropa adabiyotining ta’siri va romantik g‘oyalar ko‘zga tashlangan. Realist yozuvchilar asarlarida ijtimoiy tanqid asosiy o‘rin egallagan. 1930—1940-yillar adabiyotida „muqaddas urush“ni yoqlovchi apologetik g‘oya hukmon bo‘lgan. Ikkinci jahon urushidan keyingi davrda bir qancha yapon yozuvchilari o‘z asarlarida „barqaror qadriyatlarni“ izlash maqsadida milliy adabiyotning ko‘p asrlik an’analari murojaat qildilar. Dzyun’itiro Tanidzakining „Mayda qor“ (1943—48), Yasunari Kavabataning „Mingta turna“ (1951), „Eski poytaxt“ (1961—62) romanlari shu toifadagi asarlar bo‘lib, ularda kuchli ichki lirizm va go‘zallikning mumtoz talqini aks etadi. Shu bilan birga 1967-yil Yukio Mishimaning yapon madaniyatiga xos bo‘lgan jangovarlik an’analarni tiklashga chorlovchi trilogiyasi („Vatanparvar“, „Xrizantema“ va „Shahid bo‘lgan qahramon ovozi“) yaratilgan. Bu davrda yapon adabiyotida sengoxa oqimi qaror topgach, shu oqim vakillari bo‘lgan turli g‘oyaviy estetik yo‘nalishdagi yozuvchilar o‘z ijodlarida inson shaxsiyatini qaror toptirish manfaatlari yo‘lida an’anaviylikni inkor qilganlar. Ushbu oqim vakillarining urush mavzuiga oid asarlari, jumladan, Shohey



Okaning „Daladagi olovlar“ (1951), Hiroshi Nomaning „Bo‘shliq mintaqasi“ (1952), Shusaku Endoning „Dengiz va zahar“ (1957) romanlari yaratildi. Yosie Xottanining „Yolg‘izlik maydoni“ asarida (1951) urushdan keyingi yapon ziyyolilari haqida hikoya qilinadi. 1950—60 yillar yapon adabiyotining mashhur nomoyandalaridan biri Yasushi Inouedir. Uning „Tempyoning cherepitsali tomi“ (1957) va „Samarqandga sayohat“ (1969) tarixiy asarlari Buyuk ipak yo‘lida amalga oshirilgan ma’naviy muloqot va O‘rta Osiyoning qadimiy shaharlariga bag‘ishlangan. 1960—1970 yillarda ilmiy fantastika va detektiv roman janri rivojlandi. 1960—1980 yillar yapon adabiyoti realistik va modernistik g‘oyalarning o‘zaro harakat va kurashlarida rivojlangan. Bu davrda adiblardan Gomikava Jumpey, Ishikava Takuzo, Kayko Takeshi, Oe Kenzaburo o‘z roman va qissalarida ijtimoiy va axloqiy muammolarni ko‘tardilar.

Ushbu davrda Yaponiyaning yana bir yirik yozuvchisi Yokomitsu Riiti “Neosensualizm nazariyasi” asarini yozdi.¹ Bu yo‘nalishda o‘sha davrda Yokomitsu Riiti, Kavabata Yasunari, Kataoka Teppey, Nakagava Yoiti, Dzyuitiya Yosaburo kabi ko‘zga ko‘ringan yozuvchilar faoliyat yuritdilar. Ularning estetik konsepsiyasida G‘arb yozuvchilari Marsel Prust, Djeyms Djoys, Frans Kafka, A.Kamyularning estetik qarashlari muhim o‘rin tutdi. XX asr dunyo kontekstining nomoyandalari neosensualistlar “asarlar “sezgilar” va “tuyg‘ular” bilan yo‘g‘rilgan bo‘lishi kerak”.- degan shior bilan adabiy yangilanish yaratishga erishdilar. Bu oqimdagи yozuvchilar Zigmund Freyd psixologik tahlili bilan qiziqadilar va adabiyot har qanday bosimlardan holi “toza adabiyot” bo‘lishi shart degan g‘oyani ilgari surldilar. Ular his-tuyg‘ularga yo‘g‘rilgan, “qalb ko‘rinishi” ni bera oladigan “ruhiyat manzarasi” ni ko‘rsata oladigan asargina haqiqiy asar hisoblanishiga e’tibor qaratdilar. “Toza adabiyot” ning tuzilishida inson ongida “harakat qiladigan” “narsa” tasvirga tushishi kerak degan g‘oya bosh g‘oya hisoblanadi. Yokomitsu fikricha, inson tashqi olamni emas, balki dunyoni idrok qiladi, shuning uchun badiiy ijod ob’ektiv haqiqatni emas, balki sub’ektiv his –tuyg‘ularni ifodalashi kerak. Yozuvchi va rassomlarning vazifasi inson ruhiyatida kechuvchi voqeа-hodisalarini aslicha aks ettirishdir. Neosensualizmning dastlabki tamoyillari g‘arb modernizmining adabiy nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lib, ular ob’ekt, vaziyat yoki vaziyatdan kelib chiqqan sub’ektiv tajribaning eng kichik va ko‘zga

¹ K. Рёхо. Роман эпопея в жанровой иерархии японской литературы. Санкт-Петербург 2000 г.



ko‘rinmas jihatlarini ifodalashni talab qildilar. Neosensualistlar naturalistik adabiyotda rivojlangan badiiy nutqning dogmatik me’yorlarini egosentrik mazmuni bilan yengib o‘tishni xohladilar va voqelikning o‘zgaruvchanligiga javob sifatida turli xil va rang-barang aspektrlarni ko‘rsatish vazifasini qo‘ydilar. Yokomitsu fikriga ko‘ra, yozuvchining vazifasi "his-tuyg‘ular"ni yaratishdir, buning vositasi "so‘z, ritm, she’r" dir. Neosensualistlarning boshlig‘i, o‘z so‘zlari bilan, vaqtning yangi ko‘rinishini ifodalash, noma’lum uslubni yaratishni "adabiyotga nisbatan qo‘zg‘olon" deb e’lon qildi. XX asrning 30-yillariga kelib neosensualistlarga nisbatan tanqid kuchaydi. Yokomitsu va uning safdoshlarini nazariyadan yiroq "amaliy yozuvchi" lar deb atadilar. Ularning nazariy g‘oyalari ilmiy nazariyaning uyg‘unligiga ega emas, tushunchalar noaniq, hukmlar tushunarsizligi bilan ajralib turadi, degan qarashlar hukm surdi.

Modernistlar san’at va uning jamiyatdagi o‘rni haqida turlicha fikr yuritganlar. Neosensualistlar adabiyotni mavjud tartib doirasida emas, balki "hayotni o‘zgartiruvchi" vosita sifatida ko‘rishni istadilar. Kataoka Teppeyning

(片岡鉄兵), «Kiori qishlog‘ida tinch-totuv hayot» («Kyorison kaykyoroku», 1929) va «Sevgi muammolari» («Aydzyo no monday», 1931) asarlari qattiq tanqidga uchradi.

Chunki, neosensualizm nazariyasining o‘ziga hos jihatlari; his-tuyg‘u va sezgi bilan bog‘liq san’at asarlarini yaratishga e’tibor qaratadi. Bu nazariya san’atning mohiyati inson ichki tajribasi va his-tuyg‘ularini birinchi o’ringa qo'yadi. Subyektivlik, shaxsiy tajribalar, estetik hislar va go’zallik asarining qiymatini belgilab beradi.

Neosensualistlarning yorqin namoyandası Yasunari Kavabata yapon adabiyotini dunyo kontekstiga olib chiqdi. Shuning uchun XX asr yapon adabiyotidagi jarayonlar deyilganda Y.Kavabata ijodiga keng o‘rin beriladi. Yozuvchi ijodi XX asr G‘arb tadqiqotchilari tomonidan keng o‘rganilgan, rus yaponshunoslari tomonidan ta’sir va tipologik tamoyillariga alohida yondashilgan bo‘lsa-da, qiyosiy –tipologik jihatdan tahlilga tortilmagan.



L. I. Komarova², M. Virolaynen³, Yu.M. Lotman⁴, N. Berdyaev⁵lar o‘z asarlari va ilmiy izlanishlarida XX asr boshlarida jahon adabiyotida antropotsentrik oqimi muhim o‘rin tutganini izohlaydilar. Ushbu oqim insonni, uning his-tuyg’ularini, axloqiy jihatlarini va ichki kurashlarini markazga qo'yadi.

N. Berdyaev Lev Tolstoy va Fyodor Dostoevskiy asarlarida inson va uning borliqdagi o‘rnini, axloqiy tanlovlarni maqsadlarini tahlil qiladi. L. Tolstoy asarlarida antropotsentrik yondashuv "Anna Karenina" romanida, Anna va Vronskiy o‘rtasidagi munosabatlar orqali ijtimoiy me'yorlar bilan bog'liq kurashlari ko'rsatilsa, "Urush va tinchlik" asarida insoniyatning urush va tinchlikdagi o‘rnini, shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatni o'rganadi. Insonning o'z-o'zini anglashi, Ijtimoiy izolyatsiya, oila va mas'uliyat, Insoniyat va mavjudlik hayotdagi maqsadni qidirish F. Kafka asarlarida aks etadi. Insoniyat turli o‘zgarishlarga moslashish va qabul qilishi antropotsentrik g'oyalar bilan bog'liq. Kafka "Metamorfoza" asari antropotsentrik g'oyalar insoniyatning o'ziga xosligini, ijtimoiy aloqalarini va o'z-o'zini anglash jarayonini chuqur o'rganishga yordam beradi. Gabriel Garcia Marquez "Yolg'izlikning yuz yili" asarida insoniyatning tarixiy va ijtimoiy kontekstda o'zgarishini badiiy jihatdan tasvirlaydi. Jahon adabiyoti tanqidining ustivor yo‘nalishlarida psixoanalitik nazariyalar, inson ruhiyati, ongida kechuvchi voqealar badiiy-estetik hodisalar deb qaraldi va yer yuzidagi eng muhim va markaziy mavjudot inson ekanligi haqidagi g'oyani ilgari surdilar. Antropotsentrik nuqtai nazardan qaralganda, barcha narsalar insonning omon qolishi va zavqlanishiga hissa qo'shsagina munosibdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Л. И. Комарова Антропоцентризм художественного текста // Вестник Тамбовского университета:Гуманитарные науки 2008 г.
- 2.Тамбовского университета:Гуманитарные науки 2008 г.
- 3·М.Н.Виролайнен Антропоцентризм и космоцентризм в новой русской литературе// Известия РАН: Серия литературы и языка 20-26 стр. 2019 г.

² Л. И. Комарова Антропоцентризм художественного текста // Вестник Тамбовского университета:Гуманитарные науки 2008 г.

³ М.Н.Виролайнен Антропоцентризм и космоцентризм в новой русской литературе// Известия РАН: Серия литературы и языка 20-26 стр. 2019 г.

⁴ Лотман Ю.М. Каноническое искусство как информационный парадокс // Избранные статьи. Таллин: 1992 г. Т. 1. С. 243–247.

⁵ И. Ничипоров Антропология литературы в статьях Н. Бердяева о Ф..Достоевском,Л. Толстом,А. Белом// Литература в призме философии: Санкт-Петербург 2000 г.



4 . Лотман Ю.М. Каноническое искусство как информационный парадокс //

Избранные статьи. Таллин: 1992 г. Т. 1. С. 243–247.

5.И. Ничипоров Антропология литературы в статьях Н. Бердяева о Ф.Достоевском,Л. Толстом,А. Белом// Литература в призме философии: Санкт-Петербург 2000 г.

6.Nasirova Z.H. A study of twentieth-century Japanese literary processes // International journal of advanced research. Indiya. Impakt-faktor 6,8. 2021 g. № 9 832-839.

7.Nasirova Z.H Descriptive skills of Japanese writers. Asian Journal of Multi dimensional research 2021.// – S. 121-124.

8.Nasirova Z.H. “The theory of neosensualism” in XX century Japanese literature // wos. – , 2022. – 12-son. – B. 107-111.

9.Nasirova Z.H. Japanese literature in the context of world literature wos, Volume 4, Issue 3, Mar., 2023